

**MAMLAKATDA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIGA TO'SQINLIK
QILUVCHI MUAMMOLAR VA XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA BU
MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

**PROBLEMS HINDERING THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN
THE COUNTRY AND WAYS TO ELIMINATE THESE PROBLEMS BASED ON
FOREIGN EXPERIENCE**

To'xtasheva Hilola Amrillo qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

E-mail: hilolatukhtasheva@gmail.com

Tel: (+99891)-9640620

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Yalpi ichki mahsulotda tarmoq ulushini oshirish masalalari, soha rivojidagi to'siq va cheklovlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi, xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganildi. Bu borada kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni va rolini oshirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar turini kengaytirish, tez moslashuvchi, tez o'zgarib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish zanjirini yaratish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Abstract: Development of small business and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan is one of the pressing issues. The issues of increasing the share of the sector in GDP, the obstacles and restrictions on the development of the sector, the mechanism of state support of small business and private entrepreneurship, the experience of foreign countries were studied. In this regard, it is crucial to increase the role and place of small businesses in the economy, to expand the range of import-substituting products, to create a production chain of rapidly adapting, rapidly changing small businesses and private entrepreneurs.

Kalit so'zlar: Biznes, tadbirkor, mahalliyashtirish dasturlari, harakatlar strategiyasi, YaIM, innovatsiyalar, hamkorlik aloqalari, axborot platformasi, yangi texnika va texnologiyalar, integratsiya, diversifikatsiya.

Key words: Business, entrepreneur, localization programs, action strategy, GDP, innovation, cooperative relations, information platform, new techniques and technologies, integration, diversification.

Mamlakatlar iqtisodiyotidagi ijobiy o'zgarishlarning asosi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanish darajasiga bog'liq. "Mamlakatimiz iqtisodiyotida xususiy mulkning roli va o'rnini tubdan oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish,

iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini oshirish maqsadida, eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini yanada oshirishga qaratilgan keng iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi har yili ko'proq talab qilinadi. Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun bir qator qo'shimcha imkoniyatlar yaratilgan. Bunda, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni ta'minlash maqsadida, oliy ta'lim muassasalarida "Biznes va tadbirkorlik" yo'nalishlari ochilgan. Bu yo'nalishlar orqali talabalarga biznesni boshqarish, moliyaviy hisob-kitob, marketing, korxonaning tashkiliy tuzilishi, xodimlarni tanlash va boshqarish, mahsulotni sotish va boshqa ko'plab mavzular o'qitiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida bir nechta qo'shimcha imkoniyatlar yaratilgan. Bundan tashqari quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilsa, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlanishiga imkon yaratilgan bo'lar edi:

Birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ushbu soha rivoji uchun yanada keng yo'l ochib berish maqsadida mavjud normativ-huquqiy bazani tanqidiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish, yangi qonun hujjatlarini qabul qilish lozim.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratishdan iborat. Ma'lumki, so'ngi yillarda tadbirkorlik sohasida o'z ishini ochish uchun ruxsat olish, soliq, moliya va statistika organlariga hisobot topshirish masalalarini tartibga solish bo'yicha ancha ishlar qilindi va qilinmoqda. Ayni paytda kichik biznes subyektlarining energiya, gaz, suv va kanalizasiya, issiqlik ta'minoti va boshqa shu kabi muhandislik-kommunikasiya tarmoqlariga ulanishi yoki ularni qurishda ishtirok etishi uchun ruxsat olish tartib-qoidalarini soddalashtirish masalasi bo'yicha ham qo'shimcha chora-tadbirlar belgilanishi zarur.

Uchinchi muhim masala kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlar borasida qulaylik va yengilliklar yaratish bilan bog'liqdir.

To'rtinchidan, kichik biznes subyektlariga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash uchun o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan kreditlar berish tizimini yanada takomillashtirish, mavjud muammolarning yechimi bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Beshinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ishtirok etishi, ularning eksport salohiyatini oshirish, mintaqa va jahon bozorlariga chiqishini kengaytirish muammosini hal etishga jiddiy ahamiyat qaratish lozim.

Oltinchidan, yuqori texnologiyalarni talab etadigan iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni

rivojlantirishga keng yo‘l ochib berish zarur. Ushbu soha nafaqat milliy iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlarini jadallashtirish, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta‘minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda. Lekin shu bilan birga, bu borada ayrim muammolarga ham duch kelinmoqdaki, buning asosiy sababi kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan shaxslarning ishni nimadan boshlamoq kerakligi, uni qanday tashkil etish zarurligi va boshqarish sirlari haqida to‘la tasavvurga ega emasligidadir. Mamlakatimizning strategik yo‘nalishi jamiyat va fan oldidan ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini, xo‘jalik boshqaruvini tubdan o‘zgartirishni, xo‘jalik yuritishning yangi usullarini izlash va uni kundalik hayotga tatbiq etishni ta‘minlaydigan yangi iqtisodiy munosabatlar va g‘oyalarni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Buning uchun:

- moddiy ishlab chiqarish sohasiga tadbirkor va bilimli kishilarni ko‘proq jalb etish va menejerlar, marketing, tadbirkorlik va bozor iqtisodiyoti bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, turli mutaxassislariga har tomonlama bilim berish;


- hozirgi bozor iqtisodiyoti va raqobat muhitida raqobatbardosh ishlab chiqarish jarayonlarini shakllantirish muammolarini hal qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash;

- mulkning ko‘pchiligini rad etish; mulkchilikning turli shakllarini joriy etish va mahsulotlarni joylarda qayta ishlovchi kichik korxonalar tashkil etishni jadallashtirish;

- xususiy mulkdan kengroq foydalanish, xususiy yordamchi xo‘jalikni rivojlantirish va qo‘shma korxonalar qurishga o‘tish;

- Xorijiy davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash va moliya-kredit, soliq va bank faoliyatini takomillashtirish va h.k. orqali bozor iqtisodiyoti sohasida davlat siyosatini boshqarish va ularning kapitalidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish.

Shuni ta‘kidlashimiz mumkinki, kichik bizneslar mamlakat aholisining katta qismini ish bilan ta‘minlagan. So‘ngi yillarda qariyb mamlakat aholisining 75% dan ko‘proq qismi kichik bizneslarda faoliyat yuritishmoqda. Bunadan shuni anglashimiz mumkinki, aholi daromadlarining o‘shishi yoki kamayishi ham asosan kichik bizneslar sonining oshishi va ular faoliyatining rivojlanishiga bog‘liq. Quyidagi diagrammada 2004-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilayotgan kichik bizneslar soni aks ettirilgan:



Rasm. 1. 2004-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilayotgan kichik bizneslar soni¹

Ko'rib turganingizdek, 2004-yildan toki 2022-yilgacha mamlakatda faoliyat yuritayotgan bizneslar soni ham, mamlakatda tashkil etilayotgan bizneslar soni ham oshib bormoqda. Bu shuni anglatadiki, mamlakatda biznes boshlash va biznes yuritish jarayoni yildan yilga qulaylashmoqda.

Aholi daromadlari o'sishi asosan mamlakatda kichik bizneslar faoliyati rivojlanishiga bog'liq ekan, mamlakatda qashshoqlik darajasi ham bevosita kichik bizneslar faoliyati rivojlanishiga bog'liqdir. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra 2001-yilda mamlakatda qashshoqlik darajasi 33,6% ni tashkil etgan². 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 17% ni tashkil etgan, 2022-yilga kelib esa 14% ni tashkil etgan³. Buning asosiy sabablaridan biri mamlakatda kichik bizneslar sonining oshishi va ular faoliyatining rivojlanishidir. Chunki kichik bizneslar sonining oshishi, mamlakatda ish bilan ta'minlanganlar sonining oshishiga olib keladi. Mamlakatda ish bilan ta'minlanganlar soni oshishi esa, mamlakatning qashshoqlik darajasi kamayganini anglatadi. Quyida dunyo bo'ylab biznes yuritish jarayonini baholaydigan xalqaro ko'rsatkich ya'ni "Doing Business" ekspertlarining 2020-yilda O'zbekistonda biznes yuritish jarayoniga bergan baholari va ular tomonidan olib borilgan tahlillar bilan tanishib chiqamiz.


2020-yilda O'zbekiston Respublikasi dunyo bo'ylab biznes yuritish jarayonlarini baholovchi xalqaro ko'rsatkich ya'ni "Doing Business" ko'rsatkichida

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>

² <https://www.adb.org/publications/small-medium-sized-enterprise-finance-uzbekistan-challenges-opportunities>

³ <https://www.adb.org/countries/uzbekistan/poverty>

69,9 ball bilan 69-o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 7 pog'ona yuqoriga siljishni anglatadi. Ya'ni 2019-yilda O'zbekiston "Doing Business" xalqaro ko'rsatkichida 76-o'rinni egallagan. Bu siljishning asosiy sababi mamlakatda biznesni rivojlantirish uchun olib borilgan islohotlardir. Ular bilan tahlil davomida tanishib chiqamiz⁴. Quyida "Doing Business" xalqaro ko'rsatkichining har bir metodologiyasi bo'yicha O'zbekiston qaysi o'rinda turganini ko'rib tahlil qilib chiqamiz.



Rasm. 2. O'zbekiston davlatida kichik bizneslar rivojlanganligining "Doing Business" metodologiyalari bo'yicha tahlili⁵

Ko'rinib turibdiki, metodologiyalar bo'yicha eng yuqori natija biznes boshlash metodologiyasida qayd etilgan. Buning asosiy sababi shundaki, so'ngi yillarda biznes boshlash jarayonida bir qancha qulayliklar yaratildi. Ortiqcha byurokratik to'siqlardan voz kechildi. Aynan shuning uchun ham biznesni boshlash metodologiyasi bo'yicha yuqori natija qayd etilgan. Buning yana bir isboti sifatida shuni aytishimiz mumkinki, so'ngi yillarda yangi tashkil etilayotgan bizneslar soni keskin oshib bormoqda.

Metodologiyalar orasidan eng past natijalar esa tashqi savdo va qurilish uchun ruxsat olish metodologiyalarida qayd etilgan. Buning sababi shundaki O'zbekistonda eksport va import jarayonlari juda ko'p vaqt va xarajat talab etadi. Bundan tashqari bu jarayon qancha uzoq davom etsa, biznes faoliyatining rivojlanishi ham shuncha uzoq davom etadi. Shuningdek, qurilish uchun ruxsat olish jarayonining uzoq vaqt talab etishining asosiy sababi shundaki, bu sohada hali ham hal etilmagan katta muammolar mavjud. Jumladan, korrupsiya va byurokratiya muammolari. Quyida O'zbekiston


⁴ Manbaa: "Doing Business" annual report 2020 about Uzbekistan.

<https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/country/u/uzbekistan/UZB.pdf>

⁵ Manbaa: "Doing Business" annual report 2020 about Uzbekistan.

<https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/country/u/uzbekistan/UZB.pdf>

Respublikasida eksport va import jarayonlarini rasmiylashtirish uchun talab etiladigan vaqt va xarajatlar diagramma shaklida aks ettirilgan:



Rasm. 3. O'zbekiston Respublikasida eksport va import jarayonlarini rasmiylashtirish uchun talab etiladigan vaqt va xarajatlar⁶

O'zbekiston Respublikasi va Singapur davlatining "Doing Business" xalqaro ko'rsatkichidagi tashqi savdo metodologiyasi bo'yicha qiyosiy tahlili.

2020-yilda O'zbekiston Respublikasida tovar va xizmatlarni eksport qilishda bojxona tomonidan talab etiladigan o'rtacha vaqt 32 soatni, o'rtacha xarajat esa 278 dollarni tashkil etadi. Singapur davlatida esa eksport qilishda bojxona tomonidan talab etiladigan o'rtacha vaqt 10 soatni, o'rtacha xarajat esa 335 dollarni tashkil etadi. Ko'rib turganingizdek, Singapur davlatida eksport uchun bojxona tomonidan talab etiladigan vaqt O'zbekistonga nisbatan 3 barobar kam. Bu degani Singapur davlatida kichik bizneslarning eksportni bojxonada rasmiylashtirish jarayoni 3 marta tezroq bo'ladi va kichik biznes aylanma mablag'ining qaytib kelish vaqti ham tezroq bo'ladi degan ma'noni anglatadi. O'rtacha xarajat masalasiga keladigan bo'lsak, O'zbekistonda talab etiladigan o'rtacha xarajat Singapur davlatidagiga nisbatan biroz past, ammo bu xarajat biznes uchun juda katta ahamiyat kasb etadigan darajada emas.

Tovar va xizmatlarni eksport qilishda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni uchun O'zbekiston Respublikasida talab etiladigan o'rtacha vaqt 96 soatni, o'rtacha xarajat esa 292 dollarni tashkil etadi. Singapur davlatida esa eksport qilishda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni uchun talab etiladigan o'rtacha vaqt 2 soatni, o'rtacha xarajat

⁶ Manbaa: "Doing Business" annual report 2020 about Uzbekistan.

<https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/country/u/uzbekistan/UZB.pdf>

esa 37 dollarni tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, bu omil bo'yicha Singapur davlati O'zbekiston Respublikasiga nisbatan ancha rivojlangan. Chunki eksport hujjatlarini rasmiylashtirish jarayoni uchun talab etiladigan o'rtacha vaqt Singapur davlatida O'zbekiston Respublikasiga nisbatan 48 barobar kam, o'rtacha xarajat esa qariyb 8 barobar kam. Bu shuni anglatadiki, Singapur davlati eksport hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonini rivojlantirish uchun yetarlicha islohotlar olib borgan. Jumladan, xorijiy tajriba tahlili bobida ko'rib o'tganimizdek, Singapur davlati kichik biznes jarayonlarini rivojlantirish uchun yangi tartibdagi online platformalar tashkil etgan va boshqa ortiqcha byurokratik jarayonlarni yo'qotgan. Bu islohotlarning barchasi, kichik bizneslar rivojlanishi uchun katta ijobiy ta'sir o'tkazgan.

Xuddi shuningdek, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasida tovar va xizmatlarni import qilish jarayonida bojxona tomonidan talab etiladigan o'rtacha vaqt 111 soatni, o'rtacha xarajat esa 278 dollarni tashkil etadi. Singapur davlatida esa tovar va xizmatlarni import qilish jarayonida bojxona tomonidan talab etiladigan o'rtacha vaqt 33 soatni, o'rtacha xarajat esa 220 dollarni tashkil etadi. Bu yo'nalish bo'yicha ham Singapur davlati O'zbekiston Respublikasiga nisbatan ancha yaxshi rivojlangan. Chunki, bojxona talablari uchun talab etiladigan vaqt Singapur davlatida, O'zbekiston Respublikasiga nisbatan 3 barobar kam, o'rtacha xarajat miqdori ham 58 dollarga kam. Bu shuni anglatadiki, kichik bizneslar o'z faoliyatini yuritish uchun kerak bo'ladigan xom-ashyo va xizmatlar Singapur davlatida, O'zbekiston Respublikasiga nisbatan tezroq kirib keladi va pul aylanmasi jarayoni ham tezlashadi. Bu esa kichik bizneslar uchun juda muhimdir.

Tovar va xizmatlarni import qilishda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni uchun O'zbekiston Respublikasida talab etiladigan o'rtacha vaqt 150 soatni, o'rtacha xarajat esa 242 dollarni tashkil etadi. Singapur davlatida esa import qilishda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni uchun talab etiladigan o'rtacha vaqt 3 soatni, o'rtacha xarajat esa 40 dollarni tashkil etadi. Bu omil bo'yicha ham Singapur davlati O'zbekiston Respublikasidan ancha ilgarilab ketgan. Chunki Singapur davlatida import hujjatlarini rasmiylashtirish jarayoni uchun talab etiladigan vaqt O'zbekiston Respublikasiga nisbatan 50 barobar kam, talab etiladigan o'rtacha xarajat miqdori esa 6 barobar kam.

Umumiy holatda xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Singapur davlatida kichik bizneslarning tashqi savdo faoliyatini yuritishlari uchun katta islohotlar olib borilgan. Ayniqsa, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun talab etiladigan vaqtning 2 yoki 3 soat bo'lishi juda katta natijadir. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, kichik bizneslar uchun eng muhim narsa, pul aylanmasining tezroq bo'lishidir. Agar eksport yoki import jarayonida ko'p vaqt talab etilib, pul aylanmasi to'xtab tursa, kichik biznes bu holatdan katta zarar ko'radi yoki ko'zlangan foydaga erisha olmaydi.

Ko'rib turganingizdek, kichik bizneslarning ko'pgina mamlakat uchun muhim bo'lgan yetakchi sohalarga ta'siri beqiyosdir. Shuning uchun ham, kichik bizneslar rivojlanishi uchun kerakli islohotlarni olib borish, mamlakat uchun ustuvor vazifa

hisoblanadi. Quyida, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida kichik bizneslar rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar tahlillar asosida o'rganib chiqildi va xorijiy tajriba asosida bu muammolarni hal etish uchun takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, asosiy infratuzilmadagi muammolar:

Ya'ni yer va ko'chmas mulkdan foydalanish imkoniyati bilan bog'liq muammolar. Shuningdek, bino va arxitektura ruxsatnomalarini olish bilan bog'liq muammolar. Bu muammo bugungi kunda eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki yuqoridagi bobda ko'rib o'tganimizdek, 2020-yilda "Doing Business" xalqaro ko'rsatkichida qurilish uchun ruxsat olish metodologiyasi bo'yicha O'zbekiston 190 ta mamlakat ichidan 132-o'rinni egallagan⁷. Bu juda ham past natija hisoblanadi va bu yo'nalish bo'yicha O'zbekiston kerakli islohotlarni olib borishi kerak. Ya'ni yer va ko'chmas mulkdan foydalanish uchun ruxsat olish jarayonida talab etiladigan vaqt va xarajatlar miqdorini kamaytirish lozim. Ushbu metodologiya bo'yicha Singapur davlati 2020-yilda 5-o'rinni egallagan⁸. Singapur davlatining bu yo'nalishda olib borgan islohotlariga nazar soladigan bo'lsak, Singapur davlati ushbu jarayonlarni tezroq va kamroq xarajat qilib amalga oshira olish uchun online platformalar tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasi ham Singapur davlati tomonidan olib borgan islohotlar asosida ushbu yo'nalish bo'yicha islohotlar olib boradigan bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi albatta.

Ikkinchidan, eksport va import jarayonlarini rasmiylashtirish uchun talab etiladigan vaqtning ko'pligi:

Yuqorida tahlil qilib o'tganimizdek, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasida tovar va xizmatlarni eksport qilishda bojxona tomonidan talab etiladigan o'rtacha vaqt 32 soatni tashkil etgan. Singapur davlatida esa eksport qilish bojxona tomonidan talab etiladigan o'rtacha vaqt 10 soatni tashkil etgan. Bu shuni anglatadiki, Singapur davlatida eksport uchun bojxona tomonidan talab etiladigan vaqt O'zbekistonga nisbat 3 barobar kam. Shuningdek, tovar va xizmatlarni eksport qilishda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni uchun O'zbekiston Respublikasida talab etiladigan o'rtacha vaqt 96 soatni, o'rtacha xarajat esa 292 dollarni tashkil etadi. Singapur davlatida esa eksport qilishda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni uchun talab etiladigan o'rtacha vaqt 2 soatni, o'rtacha xarajat esa 37 dollarni tashkil etadi. Bu yerdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bu omil bo'yicha Singapur davlati O'zbekiston Respublikasiga nisbatan ancha rivojlangan. Chunki eksport hujjatlarini rasmiylashtirish jarayoni uchun

⁷ Manbaa: "Doing Business" annual report 2020 about Uzbekistan.

<https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/country/u/uzbekistan/UZB.pdf>

⁸ Manbaa: 2020-yildagi "Doing Business" yillik hisoboti.

<https://documents1.worldbank.org/curated/en/688761571934946384/pdf/Doing-Business-2020-Comparing-Business-Regulation-in-190-Economies.pdf>

talab etiladigan o'rtacha vaqt Singapur davlatida O'zbekiston Respublikasiga nisbatan 48 barobar kam, o'rtacha xarajat esa qariyb 8 barobar kam⁹.

Xuddi shuningdek, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasida tovar va xizmatlarni import qilish jarayonida bojxona tomonidan talab etiladigan o'rtacha vaqt 111 soatni tashkil etadi. Singapur davlatida esa tovar va xizmatlarni import qilish jarayonida bojxona tomonidan talab etiladigan o'rtacha vaqt 33 soatni tashkil etadi. Ko'rib turganingizdek, Singapur davlatida import jarayoni uchun bojxona tomonidan talab etiladigan vaqt, O'zbekiston Respublikasiga nisbatan 3 barobar kamdir. Bu shuni anglatadiki, kichik bizneslar o'z faoliyatini yuritish uchun kerak bo'ladigan xom-ashyo va xizmatlar Singapur davlatida, O'zbekiston Respublikasiga nisbatan tezroq kirib keladi va pul aylanmasi jarayoni ham tezlashadi. Bu esa kichik bizneslar uchun juda muhimdir. Tovlar va xizmatlarni import qilishda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni uchun O'zbekiston Respublikasida talab etiladigan o'rtacha vaqt 150 soatni tashkil etadi. Singapur davlatida esa import qilishda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni uchun talab etiladigan o'rtacha vaqt 3 soatni, tashkil etadi. Bu omil bo'yicha ham Singapur davlati O'zbekiston Respublikasidan ancha ilgarilab ketgan. Chunki Singapur davlatida import hujjatlarini rasmiylashtirish jarayoni uchun talab etiladigan vaqt O'zbekiston Respublikasiga nisbatan 50 barobar kam. Bu muammo ham kichik bizneslar rivojlanishi uchun to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki kichik bizneslarning eksport qilish jarayoni qanchalik uzoq vaqt talab etsa, kichik biznesdagi pul aylanmasi jarayoni ham shuncha ko'p vatqni talab etadi. Shuningdek, yaroqlilik muddati kam bo'lgan mahsulotlar uchun eksport jarayonining uzoq vaqt davom etishi katta xavf hisoblanadi. Bundan tashqari import qilish jarayoni qanchalik uzoq vaqt davom etsa, kichik bizneslar o'z faoliyatlarini yuritishlari uchun kerak bo'ladigan xom-ashyo va xizmatlarni shunchalik kech qabul qilishadi. Bu holatda ham kichik bizneslar erishishi mumkin bo'lgan foydaga kechroq erishishadi va bu biznes istiqboli uchun zararlidir. Shuningdek eksport va import jarayonlarining uzoq vaqt talab etishi, xorijiy investorlarni jalb etishdagi asosiy muammo hisoblanadi. Chunki investorlar pul aylanmasi sekin bo'lgan bizneslarga pul tikishdan iloji boricha uzoq turishadi. Ko'rib turganingizdek, ushbu muammo kichik bizneslar rivojlanishidagi asosiy to'siqlardan biridir. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun eksport va import jarayonlarini rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt va xarajat miqdorini kamaytirish kerak. Buning uchun Singapur davlatidagi kabi, eksport va import jarayonlarini rasmiylashtirish uchun online platformalar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

⁹ Manbaa: 2020-yildagi "Doing Business" yillik hisoboti.

<https://documents1.worldbank.org/curated/en/688761571934946384/pdf/Doing-Business-2020-Comparing-Business-Regulation-in-190-Economies.pdf>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi "2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasida Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-son qarori.
2. N.T. Po'latov. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, 2017 yil
3. A. Boboev. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hozirgi holati. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, 2017 yil
4. Sh.N. Oxunova. Mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali № 4, 2017 yil
5. A. Abdullayev. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yuksaltirishda kichik biznes imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'llari. Biznes razvedka jurnali. №1, 2019 yil.
6. "Doing Business" annual report 2020 about Uzbekistan.
<https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/country/u/uzbekistan/UZB.pdf>
7. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>
8. <https://www.adb.org/publications/small-medium-sized-enterprise-finance-uzbekistan-challenges-opportunities>
9. <https://www.adb.org/countries/uzbekistan/poverty>